



FARG‘ONA VILOYATI UCHKO‘PRIK TUMANI HOKIMINING QARORI

2021 - yil 30 - dekabr

201-11-162-Q/21

Uchko‘prik tuman hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2022 yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari tegishli tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda texnik ko‘rikni o‘tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022 yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumanda transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi davriylikka muvofiq belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun

maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — joriy yilning 1 martidan 30 iyungacha;

ikkinchi marta — joriy yilning 1 sentabrdan 31 oktabrgacha o‘tkazilsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar — 31 dekabrda o‘tkazilsin.

5. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

6. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik

ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

7. Komissiya tarkibiga kiritilgan mas’ul shaxslarning oylik ish haqi, mukofotlari 2022 yil 1 martdan 30 iyungacha va 2022 yil 1 sentyabrdan 31 oktyabrgacha to‘liq saqlansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021 yil 26 fevraldagi 93-sonli “Avtomototransport vositalarini yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish xaqida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarorning ijrosini tashkil qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Asqarov va tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Maxmudaliyev

Учкўприк туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
201-11-162-Q/21-сон қарорига
1-илова

Avtomototransport vositalarini yillik majburiy
texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha tuman

KOMISSIYASI TARKIBI

KOMISSIYA RAISI

1. Sh.Qosimov - tuman IIB YHXG DYHXX katta inspektori,

A'ZOLARI

2. N.Kenjaboev - tuman mudofaa ishlari bo'limi xodimi;
3. K.Dadajonov - «Vatanparvar» USTK tashkiloti tuman
Kengashi haydovchisi;
4. D.Meliqo'ziev - «O'zagrosug'urta» AK tuman bo'limi xodimi;

Учкўприк туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
201-11-162-Q/21-сон қарорига
2-илова

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2022 yilgi majburiy texnik ko'rigini o'tkazish

JADVALI

T/R	Tashkilot nomi	Manzili	Moto soni	Tirkama soni	Avto soni	Texnik ko'rik sanasi
1	«Al-Fa-Trans» MCHJ	Shox Navro'z	-	-	140	09-10.03.2022 y
2	«Al-Farg'oniy» AXJK	Shox Navro'z	-	10	24	11.03.2022 y
3	«Al-Beruniy» AXJK	Shox Navro'z	-	6	22	12.03.2022 y
4	«Umid FayzTrans» MCHJ	Sho'x q	-	-	34	13.03.2022 y
5	«Golden EGG» MCHJ	Salang q	-	-	90	15.03.2022 y
6	Avto yo'l tulpor trans	Salang q	-	-	36	16.03.2022 y
6	Zamin nurli yo'l MCHJ	Turg'oq q	-	-	42	17.03.2022 y
7	Premier taksi	Kapaqo'chqar q	-	-	27	18.03.2022 y
8	Eagel Trans MCHJ	Shox Navro'z	-	-	13	19.03.2022 y
9	Azizxon Nodirxon Trans	Yoyilma q	-	-	7	20.03.2022 y
10	Maxammadjon S/ Trans	Qo'qonboy q	-	8	12	20.03.2022 y
11	Ravshanbek x/k	M.Dexkonov	-	-	2	22.03.2022 y
12	Gaz Sulinder MCHJ	Uchko'prik q	-	1	3	23.03.2022 y
13	Kapaqo'chqor MCHJ	Kapaqo'chqor q	-	1	2	24.03.2022 y
14	Turg'un karvon x/k	Mirzaxuja q	-	1	2	25.03.2022 y
15	Vatanparvar USTK	Begmurod q	1	2	16	26.03.2022 y
16	Farg'ona G.G.E D.K	Qaqir q	-	-	40	27.03.2022 y
17	Geo Shirin suv	Qaqir q	-	-	10	29.03.2022 y
18	94-Avtokorxonona	Shox Navro'z k	-	13	14	30.03.2022 y
19	Obixayot-B MCHJ	Qaqir q	-	1	11	31.03.2022 y
20	Zilol suv x/f	Kenagas q	-	-	11	01.04.2022 y
21	Farg'ona T.T b.sh.k	Qaqir q	-	1	2	02.04.2022 y
22	X.M.K.K-103 MCHJ	Qaqir q	-	-	7	03.04.2022 y
23	X.M.K.K-399 MCHJ	Qaqir q	-	-	8	05.04.2022 y
24	Qishloqho'jalikkimyo	Qaqir q	-	-	4	06.04.2022 y
25	Sharqiy XDAAYSITFK.	Qaqir q	-	3	2	07.04.2022 y
26	Uchko'prik YFUK	T.Shodieva	-	-	6	08.04.2022 y
27	Ozoda Sarishta MCHJ	Uchko'prik q	2	-	5	09.04.2022 y
28	Obodonlashtirish bosh	Uchko'prik q	-	-	1	10.04.2022 y
29	Toza xudud DUK tuman filiali	Uchko'prik q	-	-	12	12.04.2022 y
30	"Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ tuman filiali	Uchko'prik q	-	-	2	13.04.2022 y
31	Tibbiyot birlashmasi	Uchko'prik q	-	-	7	14.04.2022 y
32	Xumo to'qimachi MCHJ	Uchko'prik q	-	-	7	15.04.2022 y
33	"Hududgaz Farg'ona" gaz ta'minoti filiali tuman bo'limi	Begobod q	1	-	11	16.04.2022 y
34	Transport va KKXK	Begobod q	-	-	9	17.04.2022 y
35	Qurilish va XK KXK	Uchko'prik q	-	-	3	19.04.2022 y
36	Lak buyo'q MCHJ	Uchko'prik q	-	-	9	20.04.2022 y

37	27-Avtokorxonona	Qaqir q	-	8	12	21.04.2022 y
38	Agrobank	Shox Navro'z	-	-	2	22.04.2022 y
39	Xokimiyat	Uchko'prik q	1	-	8	23.04.2022 y
40	Ro'znoma	Uchko'prik q	-	-	1	24.04.2022 y
41	Uchko'prik XTB	Uchko'prik q	-	-	3	26.04.2022 y
42	Xalk banki	Uchko'prik q	-	-	1	27.04.2022 y
43	Mikrokredit bank	Uchko'prik q	-	-	8	28.04.2022 y
44	Uchko'prik DSI	Uchko'prik q	-	-	1	29.04.2022 y
45	Yorqin X.I.Ch.F.	Paloxon q	-	-	9	30.04.2022 y
46	Kich.ken.chorvodori f/x	Kenagas q	-	-	2	01.05.2022 y
47	Mamur.Nemat.Begzod f/x	Uchko'prik q	-	-	1	03.05.2022 y
48	Grand Elit MCHJ	Uchko'prik q	-	-	1	04.05.2022 y
49	Kenagas mukammal qur x/k	Kenagas q	-	-	3	05.05.2022 y
50	Ismoiljon rezina MCHJ	Uchko'prik q	-	-	1	06.05.2022 y
51	Xusniddin Yulduz f/x	Uchko'prik q	-	-	1	07.05.2022 y
52	Ismoilov Zafarjon x/k	Uchko'prik q	-	-	1	07.05.2022 y
53	Uchk. G'isht sanoat MCHJ	Uchko'prik q	-	-	1	07.05.2022 y
54	Tola konizar Baraka MCHJ	Uchko'prik q	-	-	3	08.05.2022 y
55	Nishonova Jannatoy MCHJ	Palaxon q	-	-	7	08.05.2022 y
56	Uchk.issiklik kur. Mon.	Uchko'prik q	-	-	1	08.05.2022 y
57	Sultonova Mayramoy	Uchko'prik q	-	-	3	08.05.2022 y
58	Vodiy ideal geo tex ser	Qaqir q	-	-	8	10.05.2022 y
59	Said Sitora fayz x/k	Uchko'prik q	-	-	1	10.05.2022 y
60	Zilol suv x/k	Kenagas q	-	-	2	10.05.2022 y
61	Farg'ona gidro bur tamir	Qaqir q	-	-	16	11.05.2022 y
62	Kapa qo'chqor kurki x/k	Kapaqo'chqor q	-	-	1	11.05.2022 y
63	Sardor Saodat sari x/k	Navoiy ko'chasi	-	-	3	11.05.2022 y
64	Flora trade d/x	Uchko'prik q	-	-	1	11.05.2022 y
65	Uchko'prik obixayot MCHJ	Kenagas q	-	-	4	12.05.2022 y
66	Qurbonova Kaniza x/k	Uchko'prik q	-	-	6	12.05.2022 y
67	Almumin Savdo elitasi x/k	Uchko'prik q	-	-	2	12.05.2022 y
68	Kokond invest biznes MCHJ	Uchko'prik q	-	-	1	12.05.2022 y
69	Aripov Shavkat x/k	Uchko'prik q	-	-	1	13.05.2022 y
70	GEO Tex servis	Qaqir q	-	-	8	13.05.2022 y
71	Buyrak durdonasi o/k	Buyrak q	-	-	2	14.05.2022 y
72	Tuman irigatsiya bo'limi	Uchko'prik q	-	-	2	14.05.2022 y
73	Gofurjon trans servis MCHJ	Uchko'prik q	-	-	2	15.05.2022 y
74	Xaydovchilik san'ati mak	Yangiobod q	-	-	6	15.05.2022 y
75	Uchko'prik avto o'rgatuvchi u/k	Yangiobod q	-	-	1	17.05.2022 y
76	Vostoch.frukt. Fergane	Uchko'prik q	-	-	2	17.05.2022 y
77	Baxrin invest ideal d/x	Baxrin q	-	-	1	18.05.2022 y
78	Axmadjonov Usmonjon d/x	Uchko'prik q	-	-	1	18.05.2022 y
79	Ortopet exon x/k	Uchko'prik q	-	-	3	19.05.2022 y
80	Javoxir x/k	Qangil q	-	-	1	19.05.2022 y
81	Mirzaev Rejaveli d/x	Uchko'prik q	-	-	1	20.05.2022 y
82	Farovon xayot sari f/x	Uchko'prik q	-	-	2	20.05.2022 y
83	Salon industri MCHJ	Uchko'prik q	-	-	6	21.05.2022 y
84	Abduxalim fayz savdo MCHJ	Uchko'prik q	-	-	4	21.05.2022 y
85	Orifjon Ilyos Bogi f/x	Uchko'prik q	-	-	1	22.05.2022 y
86	Obixayot MCHJ	Uchko'prik q	-	-	1	22.05.2022 y

87	Uchko'prik Gijdon n/k	Gijdon q	-	-	1	24.05.2022 y
88	Muxammad x/f	Uchko'prik q	-	-	1	24.05.2022 y
89	Kumarik polietilen x/f	Qumariq q	-	-	1	25.05.2022 y
90	Uchko'prik DSENM	Uchko'prik q	-	-	1	25.05.2022 y
91	Tong f/x	Uchko'prik q	-	-	1	26.05.2022 y
92	Istemochilar xuquqini ximoya qilish jamiyati	Uchko'prik q	-	-	1	26.05.2022 y
93	Suvli Buyo'q MCHJ	Uchko'prik q	-	-	3	27.05.2022 y
94	Venera klassik ser MCHJ	Uchko'prik q	-	-	4	27.05.2022 y
95	Akmaljon Burxoniddin x/k	Uchko'prik q	-	-	1	28.05.2022 y
96	Qaqir Sanoat biznes MCHJ	Qaqir q	-	-	2	28.05.2022 y
97	Muxammad Yusuf cho'lpon x/k	Uchko'prik q	-	-	2	29.05.2022 y
98	Kapaqo'chqor MCHJ	Kapaqo'chqor q	-	-	2	29.05.2022 y
99	Alshukurrizo MCHJ	Uchko'prik q	-	-	1	29.05.2022 y
100	Muzaffar Kamola MCHJ	Uchko'prik q	-	-	1	31.05.2022 y
101	Xayrillo Baxt iqboli x/k	Uchko'prik q	-	-	1	31.05.2022 y
102	Sulton x/f	Uchko'prik q	-	-	2	01.06.2022 y
103	Yigitali Umrinso x/k	Uchko'prik q	-	-	1	01.06.2022 y
104	AARK x/f	Uchko'prik q	-	-	1	02.06.2022 y
105	Sarvar Asror d/x	Uchko'prik q	-	-	1	02.06.2022 y
106	M.Baraka x/k	Uchko'prik q	-	-	1	03.06.2022 y
107	Kapsula farm MCHJ	Uchko'prik q	-	-	2	03.06.2022 y
108	Saxovatpesha Xaydarjon x/k	Uchko'prik q	-	-	1	04.06.2022 y
109	Shernazarova Sanobar x/k	Uchko'prik q	-	-	2	04.06.2022 y
110	Nuriddinov Zaylobiddin x/k	Uchko'prik q	-	-	1	05.06.2022 y
111	Koraboev Nazirjon d/x	Uchko'prik q	-	-	1	05.06.2022 y
112	Uchko'prik Avtoustoz u/k	Yulguzor q	-	-	2	07.06.2022 y
113	Boymurod Limonariya d/x	Uchko'prik q	-	-	1	08.06.2022 y
114	Miraxmad DMM	Shox Navro'z k	-	-	1	08.06.2022 y
115	Asil Yo'ldosh MCHJ	Poloxon q	-	-	3	09.06.2022 y
116	Usmon ota x/f	Gul q	-	-	2	09.06.2022 y
117	Uchko'prik qamsa x/k	Uchko'prik q	-	-	2	10.06.2022 y
118	Omonjon ota x/k	Yoyilma q	-	-	2	10.06.2022 y
119	Sant k/k	Uchko'prik q	-	-	5	11.06.2022 y
120	I.Ch Maxsulot MCHJ	Guliston q	-	-	6	11.06.2022 y
121	Axrorbek x/k	Mazzanglik q	-	-	8	12.06.2022 y
122	Yangiobod Trans MCHJ	Tukaytepa q	-	-	3	12.06.2022 y
123	Muxsin x/f	Uchko'prik q	-	-	6	14.06.2022 y
124	Start Ixtiro MCHJ	To'qsonqovun q	-	-	4	14.06.2022 y
125	Sindbod Ta'minot x/k	Qaqir q	-	-	5	15.06.2022 y
126	Badr j/k	Qaqir q	-	-	6	15.06.2022 y
127	Umid k/k	Qaqir q	-	-	2	16.06.2022 y
128	Do'stlik x/f	Qurbongashqar	-	-	4	16.06.2022 y
129	Omad-k x/f	Baxrin q	-	1	4	17.06.2022 y
130	Dastyor x/f	Uchko'prik q	-	-	7	17.06.2022 y
131	Ok-chashma x/f	Kenagas q	-	-	2	18.06.2022 y
132	Dilshod Paloxon x/k	Poloxon q	-	-	1	19.06.2022 y
133	Xilol k/k	Uchkupik q	-	-	1	19.06.2022 y
134	Nishon x/f	Uchko'prik q	-	-	4	21.06.2022 y
135	Fozil ota sulolasi x/k	Yakkamulla q	-	-	2	22.06.2022 y

136	Komfort oil kemping x/k	Yangiqishloq q	-	-	5	22.06.2022 y
137	Sabr MChJ	Qo'qonboy q	-	-	10	23.06.2022 y
138	Ye.M. Klinik servis x/k	Uchko'prik q	-	-	2	24.06.2022 y
139	Shomori konstovar x/k	Uchko'prik q	-	-	3	25.06.2022 y
140	Uchk.Gidromineral MCHJ	Mirishkor q	-	-	1	26.06.2022 y
141	Oqquyosh jilvasi x/k	Guliston q	-	-	1	26.06.2022 y
142	Kamron Pardozi Servis x/k	Uchko'prik q	-	-	1	28.06.2022 y
143	Top Viktori MCHJ	Uchko'prik q	-	-	4	28.06.2022 y
144	Mat Xim Progress x/k	Uchko'prik q	-	-	1	29.06.2022 y
145	Faxriddin Shifo x/k	Begmurod q	-	-	1	30.06.2022 y
	JAMI		5	56	961	

T/R	Tashkilot nomi	Manzili	Moto soni	Tirkama soni	Avto soni	Texnik ko'rik sanasi
1	«Al-Fa-Trans» MCHJ	Shox Navro'z	-	-	140	7.8.9-09oy 2022 yil
2	«Al-Fargoniy» AXJK	Shox Navro'z	-	-	24	10.11-09oy 2022 yil
3	«Al-Beruniy» AXJK	Shox Navro'z	-	-	22	10.11-09oy 2022 yil
4	«Umid Fayz Trans»	Sho'x q	-	-	34	13.14-09oy 2022 yil
5	«Golden EGG» MCHJ	Salang	-	-	90	15.16-09oy 2022 yil
6	Avto yo'l tulpor trans	Salang	-	-	36	17.09 oy 2022 yil
7	Zamin nurli yo'l MCHJ	Turg'oq	-	-	42	18.09 oy 2022 yil
8	Premier taksi	Kapaqo'chqor q	-	-	27	20.09 oy 2022 yil
9	Eagel Trans MCHJ	Shox Navro'z	-	-	13	21.09 oy 2022 yil
	JAMI:		-	-	428	